

International Congress on Economics, Management and Business Studies
Hosted Online from New York, USA
Date: 23rd November, 2026
Website: https://econferencia.com

SAN'AT ASOSIDA ETOSFERA BARQARORLIGINI TAMINLANISHINING IJTIMOIY-FALSAFIY QARASHLARI

Qosimova Nilufar Muratjon qizi
Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: nilufar_jalilova@mail.ru

Annotatsiya
Yangi O'zbekistonning ma'naviy-madaniy modernizatsiyasi sharoitida san'atning etosfera barqarorligini ta'minlashdagi o'rni ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilingan ushbu maqolada, etosfera qadriyat, me'yor, institut, ramziy kommunikatsiya va xulqiy amaliyotlarning o'zaro ta'siridan shakllanuvchi ko'p darajali normativ-aksiologik muhit sifatida talqin etiladi. San'atning konsolidatsion, identifikatsion va gumanistik funksiyalari ochib berilgan, raqamli va ommaviy madaniyatning ambivalent ta'siri asoslangan. San'atning etosferaviy samarasini baholashning ko'p darajali integrativ modeli va fuqarolik jamiyati institutlari sinergiyasiga asoslangan mexanizmlar taklif etilgan.

Kalit so'zlar: etosfera, san'at, barqarorlik, qadriyat, aksiologiya, identifikatsiya, raqamli madaniyat, integrativ model.

Аннотация
В статье с социально-философской позиции анализируется роль искусства в обеспечении устойчивости этосферы в условиях духовно-культурной модернизации Нового Узбекистана. Этосфера трактуется как многоуровневая нормативно-аксиологическая среда, формирующаяся во взаимодействии ценностей, норм, институтов, символической коммуникации и поведенческих практик. Раскрыты консолидирующая,

идентификационная и гуманистическая функции искусства, обоснован амбивалентный характер влияния цифровой и массовой культуры. Предложены многоуровневая интегративная модель оценки этосферного эффекта искусства и механизмы, основанные на синергии институтов гражданского общества.

Ключевые слова: этосфера, искусство, устойчивость, ценности, аксиология, идентификация, цифровая культура, интегративная модель, Новый Узбекистан.

Abstract
The article offers a socio-philosophical analysis of the role of art in sustaining the ethosphere in the context of the spiritual and cultural modernization of New Uzbekistan. The ethosphere is interpreted as a multilevel normative-axiological environment formed through the interaction of values, norms, institutions, symbolic communication and behavioral practices. The consolidating, identity-forming and humanistic functions of art are revealed, and the ambivalent influence of digital and mass culture is substantiated. A multilevel integrative model for assessing the ethospheric effect of art and mechanisms based on the synergy of civil society institutions are proposed.

Keywords: ethosphere, art, sustainability, values, axiology, identity, digital culture, integrative model, New Uzbekistan.

XXI asrning ikkinchi choragiga kelib geosiyosiy qarama-qarshiliklar, ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlik, migratsiya, axborot oqimlarining algoritmik boshqarilishi va ommaviy madaniyatning transmilliylashuvi jamiyatlarning nafaqat siyosiy va

iqtisodiy, balki ma’naviy-axloqiy barqarorligiga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Raqamli kommunikatsiya qadriyatlarning erkin tarqalishi uchun yangi imkoniyatlar yaratish bilan birga, dezinformatsiya, nafrat tili, algoritmik yakkalanish va identifikatsion fragmentatsiya xavfini ham kuchaytirmoqda. Bunday sharoitda jamiyat barqarorligini faqat iqtisodiy o‘sish yoki huquqiy tartib orqali ta’minlash yetarli emas: qadriyatlar, me’yorlar, institutlar, ramziy obrazlar va kundalik xulq o‘rtasidagi ma’naviy-axloqiy muvofiqlikni saqlash strategik zaruratga aylanmoqda.

O‘zbekistonda madaniy faoliyat tashkiliy jihatdan jadal rivojlanmoqda: festivallar, teatr va muzey tadbirlari, ko‘rgazmalar, raqamli madaniy mahsulotlar soni ortib bormoqda. Biroq bu ko‘rsatkichlar san’atning shaxsda qanday qadriyaviy o‘zgarish yuzaga keltirgani, tarixiy xotira va milliy o‘zlikni qay darajada mustahkamlagani, guruhlararo ishonch va empatiyaga qanday ta’sir ko‘rsatgani haqida to‘liq ma’lumot bermaydi. Mana shu o‘rinda asosiy ilmiy-amaliy ziddiyat namoyon bo‘ladi: madaniy faollikning miqdoriy o‘sishi bilan uning etosferaviy natijalarini aniqlash o‘rtasida yagona diagnostik bog‘lanish yetarli shakllanmagan.

“Etosfera” atamasi qadimgi va o‘rta asr manbalarida bevosita qo‘llanilmagan bo‘lsa-da, uning mazmunini tashkil etuvchi fazilat, adolat, axloqiy tarbiya va ijtimoiy hamjihatlik masalalari klassik falsafada chuqur yoritilgan. Aristotel axloqiy fazilatlar odat va amaliyot orqali shakllanishini ta’kidlagan. Forobiy fazilatli shahar va komil inson g‘oyasini ilgari surgan, Miskavayh esa axloqni nafs tarbiyasi bilan bog‘lab talqin qilgan. Zamonaviy davrda Gegel ahloqiy qadriyatlarning institutlarda mujassamlashuvini asoslagan, Dyurkgeym axloqiy tarbiyaning ijtimoiy ahamiyatini ochgan, Burdye amaliyot nazariyasida norma va xulq o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilgan, Yu. Habermas esa me’yorlarning kommunikativ asoslanishini yoritgan.

Xorijiy zamonaviy tadqiqotlarda san'at va madaniyatning ijtimoiy birdamlik, ishonch hamda daxldorlikni shakllantirishdagi o'rni ko'rsatilgan. Madaniy meros kollektiv identiklikni mustahkamlashi, san'at va madaniy merosdagi hamkorlikdagi ishtirok esa barqaror rivojlanishga xizmat qilishi qayd etilgan. Ommaviy va raqamli madaniyat masalasi V. Benjaminning mexanik reproduksiya, M. Xorkxaymer va T. Adornoning madaniyat industriyasi konsepsiyalarida, zamonaviy tadqiqotlarda esa sun'iy intellekt yaratgan san'at estetikasi va mualliflik, axloq hamda estetika o'rtasidagi tarangliklar doirasida o'rganilgan. Raqamli axloq va madaniy qadriyatlarning o'zaro bog'liqligi ham yoritilgan. Madaniy hayotchanlikni ko'rsatkichlar to'plami orqali o'lchash tajribalari mavjud. Biroq san'atning etosferaga konsolidatsion, identifikatsion, gumanistik va transformativ ta'sirini yagona ijtimoiy-falsafiy tizimda tushuntirish yetarli konseptuallashtirilmagan.

Etosferaning ijtimoiy-falsafiy mohiyati shundaki, etosfera jamiyatdagi "ezgu–yovuz", "adolatli–adolatsiz", "munosib–nomunosib" chegaralarini belgilovchi, tarixan shakllanadigan ko'p darajali normativ-aksiologik muhit sifatida talqin qilinadi. U alohida axloqiy me'yorlar yoki individual fazilatlar yig'indisi emas, balki qadriyat, me'yor, institut, ramziy kommunikatsiya va xulqiy amaliyotlarning o'zaro determinatsiyasidan vujudga keluvchi relatsion-emergent hodisadir. Uning ontologik-aksiologik mohiyati obyektivlashgan ijtimoiy institutlar bilan subyektivlashgan axloqiy ongning dialektik birligida namoyon bo'ladi: qadriyatlar oila, mahalla, ta'lim, davlat, san'at va media faoliyatida institutsionallashib, shaxsning vijdoni va qadriyaviy tanlovida ichkilashtirilgandagina real mazmun kasb etadi.

Etosfera barqarorligi qadriyatlarni o'zgarmas holatda saqlash emas, balki ularning insonparvar mazmuniy yadrosini asragan holda yangi sharoitlarga moslashish va refleksiv yangilanish qobiliyatidir. Uning mexanizmi "axloqiy ong

– qadriyat – me'yor – institut – kommunikatsiya – xulqiy amaliyot – refleksiv monitoring" zanjiri orqali amal qiladi. Zanjirdagi uzilish formalizm, ishonchsizlik va qadriyaviy fragmentatsiyani keltirib chiqaradi. Etosfera shu belgilari bilan axloq, ma'naviyat, madaniyat, noosfera va infosferadan farqlanadi. San'atning etosferaga ta'sirii uchta o'zaro bog'liq funksiyada namoyon bo'lishini ko'rsatdi.

Konsolidatsion funksiya. San'at turli ijtimoiy guruhlarni mushtarak ma'no va hissiy tajriba atrofida birlashtiradi. Prezident Sh.M. Mirziyoyevning "Lazgi" xalqaro raqs festivali turli xalqlar o'rtasida samarali madaniy muloqot maydoniga aylanib borayotgani haqidagi fikri san'atni madaniyatlarni birlashtiruvchi dialogik institut sifatida baholash uchun asos bo'ladi.

Identifikatsion funksiya. Milliy badiiy meros etosferaning tarixiy xotirasi va qadriyaviy yadrosini saqlaydi, zamonaviy san'at esa bu mazmunni yangi avlod tajribasi bilan bog'laydi. Davlat rahbarining tarixiy-madaniy manbalarni yagona raqamli "katta ma'lumotlar" platformasiga jamlash zarurligi haqidagi fikri merosni faqat konservatsiya qilishdan uning ilmiy va kommunikativ hayotini ta'minlashga o'tishni bildiradi. Biroq raqamlashtirishning etosferaviy samarasi ma'lumot hajmi bilan emas, balki tarixiy kontekst, manba ishonchliligi va yosh avlodda mustaqil qadriyaviy hukmni shakllantirishi bilan belgilanadi.

Gumanistik funksiya. San'at abstrakt axloqiy g'oyalarni badiiy obraz va hissiy tajriba orqali shaxsning ichki e'tiqodiga aylantiradi, empatiya, mas'uliyat va insonparvarlikni rivojlantiradi. Bu funksiyalar "meros – talqin – ishtirok – refleksiya" uzviyligida amalga oshadi, passiv iste'molda emas.

San'at va etosfera munosabatlari bir tomonlama emas, dialektik xarakterga ega: mavjud etosfera badiiy ijodning mazmunini belgilaydi, san'at esa ijtimoiy ong, axloqiy me'yor va identifikatsiya shakllarini qayta ishlab chiqaradi yoki tanqidiy yangilaydi.

Raqamli platformalar va generativ sun'iy intellekt san'atning yaratilishi va tarqalishini demokratlashtirib, madaniy merosga kirish va ijodiy ishtirokni kengaytirmoqda. Shu bilan birga ular tijoratlashuv, algoritmik standartlashuv, kontekstsizlik, didning bir xillashuvi, mualliflikning noaniqlashuvi va identifikatsion fragmentatsiya xavfini kuchaytiradi. Bu ziddiyatni san'atni cheklash bilan emas, "inson – san'at – algoritm – institut" munosabatlarini muvofiqlashtirish orqali hal etish zarur. Buning uchun mualliflik shaffofligi, estetik-media savodxonlik, algoritmik xilma-xillik va institutsional javobgarlik tamoyillariga tayanish taklif etiladi.

Tadqiqotning markaziy metodologik xulosasi shuki, san'atning etosferaviy samaradorligini tadbirlar, tashriflar va auditoriya soni bilan aynanlashtirish yetarli emas. Shu sababli ko'p bosqichli integrativ model ishlab chiqildi.

Modelni amaliyotga tatbiq etish uchun ikki mexanizm taklif etiladi. Birinchisi, mahalla, ta'lim, madaniyat, media, nodavlat tashkilotlar va ijodiy hamjamiyatlarning funksional komplementarligiga asoslangan **"Etosferik sinergiya konturi"**. U etosferik muhitni ma'muriy bir xillashtirish emas, balki qadriyat, vakolat, resurs va javobgarlikni politsentrik uyg'unlashtirishga xizmat qiladi. Ikkinchisi, qadriyaviy xavflarni erta aniqlash, aksiologik ekspertizadan o'tkazish, badiiy ssenariylash va preventiv qarorlarga aylantirishni ta'minlovchi **"Etosfera prognostik boshqaruv konturi"**. Bu yondashuvda san'at ehtimoliy kelajaklarning axloqiy oqibatlarini obrazli modellashtiruvchi prognostik laboratoriya vazifasini bajaradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, etosfera qadriyat, me'yor, institut, ramziy kommunikatsiya va xulq o'rtasidagi o'zaro determinatsiyadan vujudga keluvchi relatsion-emergent normativ-aksiologik muhit bo'lib, uning barqarorligi tarixiy vorisiylik, refleksiv moslashuv va transformativ yangilanishning dialektik birligiga bog'liq. San'at etosferani faqat aks ettiruvchi estetik hodisa emas, balki

uni konsolidatsion, identifikatsion va gumanistik jihatdan qayta ishlab chiqaruvchi faol ijtimoiy institutdir.

Raqamli va ommaviy madaniyat san'atning etosferaga ta'sirini ambivalent qiladi; bu ziddiyat san'atni cheklash bilan emas, inson, san'at, algoritm va institutlar munosabatlarini muvofiqlashtirish bilan hal etiladi. San'atning etosferaviy samarasini tadbirlar soni bilan emas, olti mezonli ko'p darajali integrativ model orqali baholash, shuningdek fuqarolik jamiyati institutlari sinergiyasi va prognostik boshqaruvga tayanish Yangi O'zbekistonda ma'naviy-madaniy muhit barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. "Lazgi" III xalqaro raqs festivali ishtirokchilariga // Yangi O'zbekiston. – 2026-yil 28-aprel. – № 83 (1682). – B. 1.
2. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Turkiy davlatlar tashkiloti norasmiy sammitidagi nutqi // Yangi O'zbekiston. – 2026-yil 16-may. – № 99 (1698). – B. 1.
3. Aristotle. Nicomachean Ethics / Trans. W.D. Ross. – Book II, 1. – P. 13–14.
4. Al-Farabi. On the Perfect State / Trans. R. Walzer. – Oxford: Clarendon Press, 1985. – P. 229.
5. Hussin S.S. Abu 'Ali Ahmad Ibn Muhammad Ibn Ya'qub (Miskawayh): Miskawayh's Conception of the Soul // IIUM Journal of Human Sciences. – 2026. – Vol. 8, No. 1. – P. 56–57.
6. Hegel G.W.F. Philosophy of Right / Trans. T.M. Knox. – Oxford: Clarendon Press, 1952. – § 142, § 151. – P. 85, 88.